



UDK: 94(540)

Hamida ABDUMAJIDOVA,
SamDTU Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti v.b., PhD

SamDCHTI professori O.G'aybullayev taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLAR FAOLLASHUVIGA TA'SIRI

Аннотация

Maqolada Yangi O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuviga ta'siri masalalari tahlil qilinib, mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi xalqaro aloqalarni kuchaytirishda munosib o'ringa ega ekanligi va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatlararo hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgani ijtimoiy falsafiy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni amalga oshirish jarayoni ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, faollashuv, mintaqalararo hamkorlik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, xususiylik, ilm, fan, aloqalar.

ВЛИЯНИЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА ПРОЦЕССЫ ИНТЕГРАЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И АКТИВИЗАЦИЮ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В статье анализируются вопросы влияния Нового Узбекистана на процессы интеграции в Центральной Азии и активизацию общественно-политических отношений. С социально-философской точки зрения раскрывается достойное место нашей страны в укреплении международных связей между государствами Центральной Азии, а также приоритетные направления межгосударственного сотрудничества, определенные Президентом Шавкатом Мирзиёевым. Кроме того, дан научный анализ процесса реализации межрегионального сотрудничества между Новым Узбекистаном и государствами Центральной Азии, а также его результаты.

Ключевые слова: интеграция, общественно-политические отношения, активизация, межрегиональное сотрудничество, экономические, общественно-политические, специфика, наука, знания, связи.

THE IMPACT OF NEW UZBEKISTAN ON CENTRAL ASIAN INTEGRATION PROCESSES AND THE ACTIVATION OF SOCIO-POLITICAL RELATIONS

Annotation

The article analyzes the impact of New Uzbekistan on integration processes in Central Asia and the activation of socio-political relations. From a socio-philosophical perspective, it highlights the significant role of our country in strengthening international ties among Central Asian states and outlines the priority areas for interstate cooperation identified by President Shavkat Mirziyoyev. Furthermore, the article provides a scientific analysis of the implementation of interregional cooperation between New Uzbekistan and Central Asian states, along with its outcomes.

Keywords: integration, socio-political relations, activation, interregional cooperation, economic, socio-political, specificity, science, knowledge, relations.

Kirish. Yangi O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlash masalasi bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri bo'lib, mamlakatimiz va Markaziy Osiyo hukumatlari tomonidan sanoat va ilmiy-texnikaviy, mintaqalararo hamkorlik, do'stlik, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish, ta'lim-tarbiya hujjatlarini o'zaro tan olish to'g'risidagi shartnomalar imzolangan. Jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston iqtisodiy jihatdan rivojlanishi va mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashi borasida ham O'zbekiston muhim hamkor bo'lib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar xalqlarning tarixiy yaqinligi va o'zaro siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga asoslanadi. Shu bois hamkorlikni kengaytirishning muhim omili umummilliy qo'shma xorijiy korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyatiga keng imkoniyatlar ochib berish hisoblanadi.

Bundan tashqari hozirda Yangi O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni amalga oshirishning bir qator ijobiy jihatlari mavjud. Masalan, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, hududiy klaster, savdo zonalarini tashkil etish, yuqori

texnologiyali faoliyat turlarini (mashinasozlik, farmatsevtika, asbobsozlik, axborotlashtirish va aloqa) rivojlantirish va amalga oshirishda tuman va shaharlarda sanoat korxonalarini hududlar kesimida investitsiya resurslarini jalb qilish, mahalliy mahsulotlar, jumladan, to'qimachilik brendlarini shakllantirish, savdo uylari va markazlarini ochish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga chiqarish, ta'lim, sog'liqni saqlash, biznesni rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish sohasida tajriba almashish, ilg'or texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy quvvatlar va resurslarga asoslangan qo'shma loyihalar orqali uzoq va chegara hududlarini (qishloq) takomillashtirish shular jumlasidandir.

Xususan amalga oshirilayotgan ushbu integratsiya jarayonlari Yangi O'zbekiston va Markaziy Osiyoda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy modernizatsiya jarayonlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston yo'lovchilar va yuklarni transchegaraviy tashishni yanada yaxshilash uchun etarli darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi va tashqi bozorlarga olib chiquvchi eng muhim transport yo'laklarini barpo etish va modernizatsiya qilish

loyihalarini amalga oshirgan hamda transport logistikasi xarajatlarini kamaytirib, mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni yo'lga quyan va Buyuk ipak yo'li bo'ylab turizmni rivojlantirish istiqbollarini yaratgan. Darhaqiqat, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan aholi bandligini ta'minlash, mintaqalararo hamkorlikni tashkil etish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish sohalarida ham ijtimoiy aloqalarini olib bormoqda. Bugungi kunda suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik vaziyatni barqarorlashtirish masalasi Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar oldida turgan eng muhim masalalar bo'lib, bu sohalar bo'yicha ham hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona energetika tizimining qayta tiklanishi O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistonga umumiy quvvatlardan foydalanish va energiya ta'minoti bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish imkoni berildi. Yagona elektr energiya bozori iste'molchilarga oshkora narxlar belgilash imkonini berib, a'zo davlatlarning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.[1-4].

Materiallar va metodlar. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining maqsadlari va manfaatlariga yagona mintaqa sifatida namoyon bo'lib, Osiyoda joylashgan boshqa davlatlar bilan xalqaro huquqning belgilangan tamoyili va me'yorlariga asoslangan, tinchlikparvar, do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlikka qaratilgan faol tashqi siyosat olib borilmoqda. Jumladan O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati mustaqillikni mustahkamlashga, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlashga, mamlakatimizni barqaror iqtisodiy rivojlanishiga va xalqaro maydonda o'z salohiyatini to'liq namoyon qilishiga xizmat qilib, Markaziy Osiyoda xavfsizlik hamda barqaror taraqqiyot, siyosat, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy, suv-energetika, ekologik va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni kengaytirish, mintaqadagi integratsiya va modernizatsiya jarayonlari bilan uyg'un ravishda amalga oshirilmoqda. Chunki O'zbekiston va Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiyotgan mintaqaga aylantirish ushbu davlatlar oldida turgan asosiy masaladir. Bundan tashqari Markaziy Osiyo integratsiyasiga sezilarli ta'sir etuvchi O'zbekiston ilgari surgan tashabbuslar qo'shni davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston tomonidan munosib ravishda qo'llab-quvvatlanib, ayniqsa, mamlakatlar rahbarlarining doimiy maslahatlashuv uchrashuvlarining tashkil etilishi davlatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining kuchayishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Mintaqaviy iqtisodiy forum, Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari (hokimlari) hamda biznes hamjamiyatining assotsiatsiyasini ta'sis etish, tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiyalash jarayonini tezda hamda uzil-kesil yakuniga etkazish bo'yicha ilgari surgan takliflari integratsiyalashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan mintaqada suv resurslaridan foydalanish muammosini imkon qadar tezroq tartibga solinishi, xalqlarimiz o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalarning yanada yaxshi yo'lga qo'yilishi, do'stlik hamda yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining mustahkamlanishi mintaqaviy integratsiyaning muhim jihatlaridandir. Shu bois bugungi kunda O'zbekiston dunyo hamjamiyati uchun ochiq mintaqaga aylanib, Markaziy Osiyo davlatlari va jahon mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari yanada yuqori bosqichga ko'tarilmoqda va xalqaro integratsiyalashuv

jarayonlari chuqurlashmoqda. Chunonchi, O'zbekiston va Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlari yaqin qo'shnichilik, do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlash, ilm-fan, ta'lim, texnologiyalar, innovatsiyalar, turizm, madaniyat, san'at va sport sohalaridagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish asosida amalga oshirilmoqda. [5,6].

Muhokama va natijalar. Keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan pragmatik ochiq siyosat tufayli mamlakatimizning Markaziy Osiyo va jahon hamjamiyatidagi nufuzi tobora ortib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yetmish beshinchi yubiley sessiyasida ishtirok etib nutq so'zladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro hamjamiyat e'tiboriga mintaqaviy va global ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan o'z nuqtai nazarini taqdim etdi, mamlakatimizni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Davlatimiz rahbari mintaqada va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, konstruktiv muloqotni kengaytirish, shuningdek, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi, qashshoqlikka barham berish va kambag'allikni qisqartirish masalalari kabi zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Keyingi yillarda O'zbekistonda tashkil etilayotgan nufuzli xalqaro konferensiyalar, forumlar, madaniy tadbirlar O'zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyoning, balki dunyoning zamonaviy madaniy-ma'rifiy markazlaridan biriga aylanib borayotganini anglatadi.

Markaziy Osiyodagi davlatlar ichida O'zbekiston yirik inson salohiyatiga ega bo'lgan, ilm-fani, sanoati rivojlangan, harbiy sohada o'zining mavqega ega bo'lgan, mintaqadagi boshqa davlatlar bilan umumiy chegaraga ega bo'lgan davlatdir. O'zbekiston olib borayotgan siyosatda islohotlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli ichki rivojlanishi, aholi turmush farovonligi oshishini ta'minlash, aholi hayot sifatini ko'tarish uchun qulay tashqi sharoitni yaratish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning atrofida tinchlik, barqarorlik hamda xavfsizlik muhitini shakllantirish masalalari esa tashqi siyosatdagi asosiy vazifalar bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston joylashgan Markaziy Osiyodagi xavfsizlik mintaqasi barqaror rivojlanishining asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishi va mustahkamlashi tashqi siyosat sohasidagi asosiy ustuvor vazifalardan bo'lib hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirib bormoqda. Birinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o'tkazish to'g'risidagi taklifi amalga oshdi. Ushbu tashabbus mintaqa davlatlarining barcha rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi hamda xalqaro miqyosda keng tan olindi. Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va Qirg'izistonda bo'lib o'tgan uchrashuvlar Markaziy Osiyo modernizatsiyasi, integratsiyasi va xalqaro darajada ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuviga ijobiy tarzda ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari modernizatsiyalashuvi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuvining muhim sub'yekti va faol a'zosi sifatida mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda muhim o'rin tuta boshladi. Ikkinchidan, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari o'rtasida barqaror iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatilib tobora mustahkamlanib bormoqda. Uchinchidan, Shavkat Mirziyoyev o'zining ilk xorijiy tashrifini 2017-yil 6-7 mart kunlari Turkmanistonga rasmiy tashrif bilan amalga oshirdi. Uchrashuvda transport sohasida

zamonaviy infratuzilma yaratish bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu hamkorlik Markaziy Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq transport tizimlarini birlashtirishni ko'zda tutgan edi. 2018-yil 23-aprel kuni Turkmanistonning sobiq prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keladi va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga doir 17 ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi keyingi yillardagi o'zgarishlar sababli tovar ayirboshlash hajmi uch barobardan ziyodga ko'paydi. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida 150dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil etildi. [7,8].

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlarda ham bir qator ijobiy natijalarga erishildi. 2017-yilning 22-23 mart kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qozog'istonda bo'ldi. Muzokaralar yakuniga ko'ra ikki davlat o'rtasida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolandi. O'zbekiston Qozog'iston chegarasida 2006 yilda yopilgan «Oq oltin» va «Malik» avtomobil o'tkazish punktlari qaytadan ochildi. 2019-yilning 14-15 aprel kunlari Qozog'iston Respublikasining hozirgi prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. Uchrashuvda ikki tomonlama savdo aylanmasi hajmini yaqin kelajakda 5 mlrd dollarga yetkazishga kelishildi. Ikki davlat o'rtasida Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qozog'istonning Turkiston viloyati chegaralari tutashgan uchastkalarda davlatlararo chegarani demarkatsiyalash bo'yicha bir nechta muzokaralar o'tkazildi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarda ham bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Ikki davlat o'rtasida murakkab va nozik hisoblangan chegara va suv-energetika sohasidagi masalalar o'z yechimini topdi. Bu o'zgarishlarning barchasi oddiy fuqarolarning hayotida ko'zga tashlanib, ikki davlat fuqarolari o'z qarindoshlari va do'stlarini to'g'ri to'g'risiz, erkin tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishdi. O'zbekiston-Tojikiston chegarasidan hozirgi paytda har kuni 20 mingga yaqin kishi o'tadi. Ushbu ko'rsatkich 3-4 yil oldin bor-yo'g'i 3-3,5 mingni tashkil qilardi. 2018-yilda ikki tomonlama o'zaro davlat tashriflari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarda ham ijobiy tendensiya ko'zga tashlanib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda so'nggi o'n yil davomida ilk bor chegara masalalarida ijobiy natijalarga erishildi. Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov uchinchi davlat tashrifini O'zbekistonga amalga oshirdi. Tashrif doirasida ko'p qirrali O'zbekiston - Qirg'iziston sherikligining deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olgan 22 ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o'rtasida eng nozik nuqtalardan biri bo'lgan chegaradagi muammolar yaqin kelajakda hal qilinishi ta'kidlandi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari va jahondagi ko'plab boshqa davlat va davlat uyushmalari bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Fuqarolari uchun O'zbekistonda vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 2021-yil 15-mart holatiga ko'ra 90tani tashkil qildi. Ushbu ro'yxatdagi davlatlar soni oxirgi uch yil ichida o'n barobardan oshiq ko'paytirildi. Bu esa ushbu davrda O'zbekistonga keladigan turistlar sonining deyarli 4 baravar oshishiga olib keldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida hal qilinishi zarur bo'lgan ko'pgina muammolar mavjud bo'lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi eng asosiy muammolardan biri bu chegaralar muammosidir. Mintaqadagi chegaraviy muammolarni hal qilish uchun ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda davlat chegaralarini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish hamda chegaradagi bahsli hududlar muammosini uzil-kesil hal etish masalasida bir qancha amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Samarqand shahrida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash masalasida "Markaziy Osiyo: yagona tarix va

umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusida 2017-yil 10-11-noyabr kunlari BMT shafe'ligida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi bahsli nuqtalar bo'yicha kelishuvga erishildi.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan suv resurslarining 90 foizi sug'orma dehqonchilik uchun ishlatilmoqda. Suv qishloq xo'jaligining asosi bo'lib hisoblanadi va suv xo'jaligi tarmog'i Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat iqtisodiyotida ham muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat qishloq xo'jaligi sohasi bu mamlakatlar YalMning 10 foizidan 45 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Kelajakda Markaziy Osiyo hududida suv manbalarining kamayib borish tendensiyasi ro'y berishi ehtimoli mavjud bo'lib, muzliklar mintaqadagi suv resurslarining asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi hamda ularning eng katta qismi Tojikiston hududiga to'g'ri keladi. Tojikiston hududida joylashgan muzliklar Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. "Ob-havo o'zgarishi bilan Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish va xavfsizligini ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etib boraveradi.

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik tayanchi bo'lgan Yangi O'zbekistonning mintaqada geografik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati, harbiy imkoniyati, aholi soni, xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori, qadimgi davlatchilik an'analari uning mintaqaviy hamkorlikdagi o'rini belgilab bermoqda. "Geografik joylashuv, iqtisodiy salohiyat, aholi soni kabi omillar majmui O'zbekistonning mintaqadagi nafaqat mavqecini, balki mazkur holat uchun uning alohida mas'uliyatini ham belgilaydi", deb hisoblaydi tajribali diplomat va olim S.Safoyev. [9,10].

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlarini o'rganishga doir tadqiqotlar jahonning turli mamlakatlaridagi ilmiy muassasalar, jumladan, The Institute of Central Asia and Caucasus, Central Asia Program at George Washington University (AQSH); French Institute of International Relations, French Institute for Central Asian Studies (Frantsiya); International Relations and security studies (Germaniya); China Institutes of Contemporary International Relations, Institute of Central Asia (Xitoy); Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, Xalqaro tadqiqotlar instituti huzuridagi Markaziy Osiyo va Afg'oniston muammolarini o'rganish instituti, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (Rossiya); Qozog'iston strategik tadqiqotlar instituti, Qozog'iston menedjment, iqtisodiyot va prognozlashtirish universiteti qoshidagi Markaziy Osiyoni o'rganish Markazi (Qozog'iston); Strategik tadqiqotlar Milliy instituti (Qirg'iziston); Strategik tadqiqotlar markazi (Tojikiston) kabilarda olib borilmoqda. Ammo ushbu tadqiqotlar Markaziy Osiyo davlatlarining ichki va tashqi siyosiy munosabatlari yuzasidan olib borilgan va ularning natijasida bir qator ilmiy xulosalar olingan bo'lib, ularda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi siyosiy transformatsiya, ko'ptomonlama hamkorlik, "Bir makon, bir yo'l", Shanxay hamkorlik tashkiloti, Evropa Itifoqining Markaziy Osiyodagi strategiyasi kabi mintaqaviy hamda global integratsion jarayonlar o'rganilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy ma'naviy-madaniy o'ziga xosligi mavjud bo'lib, bu aynan bir davlat tuzilmalari doirasidagi umumiy tarixni; folklor, an'analar va boshqalarning umumiyiligini; dini; umumiy xavfsizlik masalalarini o'zida ifodalab kelmoqda. Shu bois mintaqamizning har bir respublikasida ma'naviy uyg'onish, o'z tarixi, an'ana va urf-odatlarini qayta tiklash, tarixiy o'ziga xoslikning rivojlanishi bilan bog'liq yangilanish jarayonlari sodir bo'lib, integratsiyalashuv jarayonlari bilan uyg'un ravishda amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент, Адолат, 2018 йил.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2017-йил.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд.Тошкент, Ўзбекистон. 2018-йил.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улўғ халқнинг иши ҳам улўғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2019-йил.
5. Кўчаров Ч.Ш. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари. - Тошкент, Фан, 2008 йил.
6. Mirzayeva M.K. “The im pact of the great silk road and eastern scientists on the development of world science”, Electronic Research Journal of Social Sciences and Humanities Vol 2: Issue II ISSN: 2706 - 8242 www. Apr - Jun 2020
7. Abdumajidova H., Yaxshilikov J. Cooperation in central asia as a priority direction of foreign policy of uzbekistan Galaxy international interdisciplinary research journal, 2021.
8. Abdumajidova H. Active foreign policy of Uzbekistan and its impact on integration process in Central Asia.- American Journal of Social and Humanitarian Research, 2021.
9. Abdumajidova H. Axloq falsafasi va ma'naviy -axloqiy tarbiya //«ACTA NUUZ». – 2025. – Т. 1. – №. 1.6. 1. – С. 28-30.
10. Abdumajidova H. Markaziy Osiyo mamlakatlari modernizatsiyalashuvi integrasiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy masalalari. Monografiya-Samarqand 2026.